



Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

"Tafakkur-Tamaddun" OOO

"Beruniy avlodlari" jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara KURBANBAYEVA

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Anvar ALLAMBERGENOV

TEXNIK MUHARRIR:

Islombek ABDIKHAKIMOV

BO'LIM MUHARRIRI:

Muqaddas KURBANBAYEVA

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Mehmet Munir Dadaoglu, phil.sc.d., prof. (Turkiya)

Roman GOPAL, fil.f.f.d (PhD), (Hindiston)

Azizulloh AROL, fil.f.f.d (PhD), (AQSH)

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Xəlil İsmayıl oğlu İsmayilov, t. f.d, prof., (Ozarbayjon)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d, dots.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD), k.i.x.

Shoira NURULLAYEVA, t.f.n., dots

Konul Bunyadzoda, falsafa fanlari doktoru, (Ozarbayjon)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVI Binnatova, fil.f.d., prof., (Ozarbayjon)

Azamat PRIMOV, fil.f.d., (DSc), prof.

Nasibullina Nurida Shaydullovna, fil.f.n., (Rossiya Federatsiyasi)

Sayyora SAMANDAROVA, fil. f.n., dotsent

Shukurjon Norbayeva, fil.f.d., (DSc)

Bekposhsha RAXIMOVA, fil.f.n., dots., (PhD)

Qabil MAMBETOV, fil.f.f.d., (PhD)

Vahob RAHMONOV, fil.f.n., dots.

Farrux Abbas oglu Rustamov, p.f.d, prof. (Ozarbayjon)

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Nilufar KOSHANOVA, ped.f.f.d., (PhD)

Odilbek RADJAPOV, fal.f.f.d., (PhD)

Rana Hamid qizi Qadirova, psixol.f.d., prof. (Ozarbayjon)

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafroz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi: G'iyosiddin O'NAROV

Manzilimiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt: <https://jurnal.tamaddunnuri.uz>

e-mail: tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali: <https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55, (+99897) 355 75 40.

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 28.

Indeks – 960. ISSN 2181-8258. "ADAD PLYUS" MCHJ

bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Bosishga 2025-yil 31-oktyabrda ruxsat etildi.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy.

2025-yil, 10-son (73).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №31.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.



"Tamaddun nuri" jurnali Google Scholar bazasida indekslanadi. Bu esa jurnalning ilmiy nufuzini oshirish va mualliflarning ilmiy ishlarini keng miqyosda targ'ib qilishga yordam beradi. Google Scholar orqali tadqiqotchilar va olimlar "Tamaddun nuri" jurnalida chop etilgan maqolalarni qidirib topish va ularga havola berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tahririyat Crossref DOI ning rasmiy a'zosi hisoblanadi va 10.69691 DOI prefiksiga ega. Har bir nashr va ilmiy maqolaga individual Crossref DOI raqami beriladi.



Crossref 10.69691 DOI



ISSN-2181-8258



Impakt faktor-9.347



SLIB.UZ

BIZNI IJTIMOIY TARMOQLARDA QUYIDAGI MANZILLARDA KUZATING:



12.00..00 – “YURIDIK FANLAR”

Otakova Mahbuba Alisherovna. Insonlarning ekologik huquqlarini tartibga solishning muammo va yechimlari.....	247
Xakimova Inobatxon Marksova. Oilada ma'naviy muhitni mustahkamlashda zo'rvonlikka qarshi huquqiy choralarining ahamiyati.....	277

13.00.00 – “PEDAGOGIKA”

Daniyeva Yarkin Choriyevna. Xakimova Nargiza Urokovna. Innovatsion yondashuv asosida talabalarni sport mashg'ulotlariga kompleks tayyorlash texnologiyasi.....	23
Asanova Gulmira Baxtibekovna. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati.....	36
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich. Ta'lim jarayonida Fitrat merosidan foydalanishning innovatsion shakllari va dolzarb tajribalar.....	64
Бердиева Хуршида Каримовна. Ёш гандболчи қизларнинг тезкорлигини ривожлантиришда ҳаракатли ўйинларни қўллаш самарадорлиги.....	71
Bazarova Dildora Zafurovna. Grammatika darslarida elliptik konstruksiyalarni o'qitishning interfaol usullari.....	85
Bozorova Nozigul Ramazonovna. Ta'lim-tarbiyada milliy folklorini integratsiya qilishning mazmuni va metodik asoslari.....	105
Samadova Sarvinov Samad qizi. Jadid matbuotining yoshlar ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyati.....	185
Yarmatova Shaxnozaxon Ilxomovna. Konstruktivistik yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish (tikuv buyumlari texnologiyasi fanini o'qitish misolida).....	224
Xolboyeva Gulxayo. Urzaliyeva Shaxnoza. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talaba qizlarning muvofiqlashtirish qobiliyatlarini yangi innovatsion usullar orqali rivojlantirish.....	228

19.00.00- “PSIXOLOGIYA”

Muxammadiyeva Shaxlo Faniyevna. Psixobiografiya umumiy qarashlar: nazariy asoslar, metodlar va amaliyotdagi ahamiyati (nogirolnligi bor shaxslar misolida).....	16
Abdug'aniyeva Diyora. Destruktiv emotsional holatlar o'rtasidagi interaktiv munosabatlarning psixologik xususiyatlari.....	212

Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. O'zbekiston Respublikasi OAK tomonidan 2019-yil 30-yanvarda chop etilgan OAK rayosati qarorlari bilan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra 07.00.00 - “Tarix”, 09.00.00 - “Falsafa”, 10.00.00 - “Filologiya” ixtisosligi bo'yicha; OAK Rayosatining 2023-yil 31-oktyabrdagi 345-son qarori bilan 12.00.00 – “Yuridik fanlar”, 13.00.00 – “Pedagogika”, 19.00.00 – “Psixologiya” ixtisosliklari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**KONSTRUKTIVISTIK YONDASHUV ASOSIDA
BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY
FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (Tikuv buyumlari texnologiyasi
fanini o‘qitish misolida)**

*Yarmatova Shaxnozaxon Ilxomovna, Toshkent to‘qimachilik va
yengil sanoat instituti mustaqil tadqiqotchisi*

**IMPROVING THE METHODOLOGY OF
PREPARING FUTURE SPECIALISTS FOR
PROFESSIONAL ACTIVITY BASED ON A
CONSTRUCTIVIST APPROACH (On the example of
teaching the subject “Sewing Products Technology”)**


*Yarmatova Shakhnozakhon Ilkhomovna, independent
researcher at the Tashkent Institute of Textile and Light Industry*

**КОНСТРУКТИВИСТСКИЙ ПОДХОД К
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МЕТОДИКИ
ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ К
ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (на
примере преподавания дисциплины “Технология
швейных изделий”)**

*Ярматова Шахнозакхон Ильхомовна, независимый научный
исследователь Ташкентского института текстильной и
легкой промышленности*



<https://orcid.org/0009-0008-9705-5062>
e-mail:
madaminova1979@gmail.com



Annotatsiya: Mazkur maqolada tikuv buyumlari texnologiyasi fanini o‘qitishda konstruktivistik yondashuvdan foydalanishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishda talabalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, hamkorlikda o‘qish va amaliy faoliyatda tajriba orttirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi metodik yondashuvlar taklif etiladi. Konstruktivizmning asosiy g‘oyalari — bilimni tayyor holda emas, balki o‘quvchi tomonidan faol qurilish jarayonida egallash — kasbiy tayyorgarlik jarayonida samarali natija beradi.

Kalit so‘zlar: konstruktivistik yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, tikuv buyumlari texnologiyasi, amaliy ta’lim, mustaqil o‘qish, interfaol metodlar.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations and practical aspects of applying a constructivist approach in teaching the subject “Sewing Products Technology”. The study proposes methodological approaches aimed at enhancing students’ independent thinking, problem-solving abilities, teamwork skills, and practical experience in professional activities. The main idea of constructivism — knowledge acquisition through active construction by the learner rather than passive reception — contributes to the effectiveness of professional training.

Keywords: constructivist approach, professional training, sewing products technology, practical learning, independent study, interactive methods.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы и практические аспекты использования конструктивистского подхода в преподавании дисциплины “Технология швейных изделий”. Предлагаются методические подходы, направленные на развитие у будущих специалистов самостоятельного мышления, умений решать проблемные ситуации, работать в сотрудничестве и приобретать практический опыт в профессиональной деятельности. Основные идеи конструктивизма — усвоение знаний не в готовом виде, а в процессе активного построения самим обучающимся — обеспечивают высокую эффективность профессиональной подготовки.

Ключевые слова: конструктивистский подход, профессиональная подготовка, технология швейных изделий, практическое обучение, самостоятельное обучение, интерактивные методы.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Hozirgi davrda ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – bo’lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdir. Tikuv buyumlari texnologiyasi yo’nalishidagi ta’lim jarayoni ham zamonaviy yondashuvlarni talab etadi. An’anaviy o’qitishdan farqli o’laroq, konstruktivistik yondashuv o’quvchini bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi subyekt sifatida qaraydi. Shu bois, bu yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodika o’quvchi faoliyatini, uning tajribasini, ijodkorligini va o’z-o’zini rivojlantirish salohiyatini rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Konstruktivizm pedagogik falsafaning zamonaviy yo’nalishlaridan biri bo’lib, J.Piaget [1,368b], L.Vigotskiy [2, 159b], D.Dewey [3,91b] va J.Bruner [4,176b]larning g’oyalari bilan bog’liq. Ushbu yondashuvga ko’ra, o’quvchi yangi bilimni o’zining oldingi tajribasi asosida “quradi”. O’qituvchi esa bu jarayonda yo’naltiruvchi, muhit yaratuvchi rolini bajaradi.

MUHOAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). J.Piaget konstruktivizmning ilmiy-psixologik asoschisi hisoblanadi. U bilim inson tomonidan tashqi olamni idrok etish jarayonida faol tarzda “quriladi” degan g’oyani ilgari surgan. Uning fikricha, bilim tayyor holatda berilmaydi, balki shaxsning tajribasi, kuzatuv va tafakkur faoliyati orqali shakllanadi. J.Piaget ta’limda muammoli vaziyatlar, mustaqil kashfiyot va tajriba asosidagi o’rganish usullarini samarali deb hisoblagan [1,123-b]. Tikuv buyumlari texnologiyasi fanini konstruktivistik asosda o’qitishda Piagetning g’oyasi talabalarning o’z tajribasi orqali texnologik jarayonni anglashiga asos yaratadi.

L.Vigotskiy ta’lim jarayonida ijtimoiy muhit va muloqotning o’rni alohida ta’kidlagan [2,13-b]. U “yaqin rivojlanish zonasi” (Zone of Proximal Development) nazariyasini ishlab chiqqan. Bu nazariyaga ko’ra, o’quvchi murakkab topshiriqlarni o’qituvchi yoki tengdoshlar yordamida bajara oladi — bu jarayon bilimni chuqur o’zlashtirishga olib keladi. Shuningdek, u til, muloqot va tafakkur o’rtasidagi bog’liqlikni ham izohlagan. Konstruktivistik metodda o’qituvchi “bilim manbai” emas, balki “yo’naltiruvchi” bo’ladi. Vygotskiyning g’oyalari talabalarning hamkorlikda o’rganishi, muammoli vaziyatlarni birgalikda tahlil etishi va fikr almashuvi orqali kasbiy kompetensiya shakllanishini asoslaydi.

D.Dewey ta’limni hayotiy tajriba bilan chambarchas bog’lash tarafdori bo’lgan. U “tajriba asosida o’qitish” (learning by doing) g’oyasini ilgari surgan. Uning fikricha, o’qitish jarayoni o’quvchi uchun amaliy faoliyat, kuzatish va refleksiya orqali yangi bilim yaratish imkonini berishi kerak [3,46-b]. D.Dewey ta’limni jamiyat hayotiga tayyorlash emas, balki jamiyat hayotining o’zi sifatida ko’radi. Tikuv buyumlari texnologiyasida Deweyning g’oyasi – “o’rganish amaliyot orqali” – ishlab chiqarish laboratoriyalari, amaliy mashg’ulotlar va loyiha ishlari orqali kasbiy tayyorgarlikni chuqurlashtiradi.

J.Bruner konstruktivizmni didaktik tizim sifatida rivojlantirdi. U o’qitishning uch bosqichli modelini taklif etgan: faol (enactive) – harakat orqali o’rganish, tasviriy (iconic) – ko’rgazmali vositalar orqali o’rganish, belgili (symbolic) – tushunchalar va ramzlar orqali o’rganish. U “kashfiyotchilik o’qitish” (discovery learning) tamoyilini ishlab chiqib, o’quvchini faol bilim yaratuvchi sifatida tasvirlagan [4,167-b]. Tikuv buyumlari texnologiyasi fanida Brunerning yondashuvi o’quvchilarga amaliy tajriba (chok,

material, model), ko'rgazmali o'rganish (sxema, rasm, namunalar) va nazariy umumlashtirish bosqichlarini uyg'unlashtirish imkonini beradi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tikuv buyumlari texnologiyasi fanida bu nazariya o'z ifodasini talabalarning amaliy faoliyatini tashkil etishda topadi: o'quvchi tayyor texnologiyani emas, balki mustaqil tahlil va sinov orqali o'z texnologik yechimini ishlab chiqadi.

Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda konstruktiv yondashuv tamoyillari:

Faollik tamoyili: talaba o'quv jarayonining faol ishtirokchisi bo'ladi;

Refleksiya tamoyili: har bir bosqichda talaba o'z faoliyatini tahlil qiladi;

Hamkorlik tamoyili: o'quvchilar kichik guruhlarda ishlaydi, fikr almashadi;

Muammoli o'qitish: amaliy jarayonda muammoli vaziyatlar orqali mustaqil qaror qabul qilish malakasi shakllanadi.

Fanni o'qitishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

Loyiha asosida o'qitish (Project-based learning): talabalarga haqiqiy ishlab chiqarish jarayoniga yaqin loyihalar beriladi (masalan, libos modelini ishlab chiqish, chok texnologiyasini takomillashtirish).

Muammoli o'qitish (Problem-based learning): talabalarga yechimi ochiq masalalar taqdim etiladi (masalan, "Matoning cho'ziluvchanligi chok sifati va mustahkamligiga qanday ta'sir qiladi?")

Ko'rgazmali-amaliy metod: laboratoriya ishlarini bajarish, texnologik jarayonlarni kuzatish, modellar yasash orqali o'rganish.

Refleksiv tahlil: har bir darsdan so'ng talabalarning o'z faoliyatini baholashi, qiyinchiliklarni tahlil etishi.

Konstruktiv yondashuv asosida o'qitilgan talabalar: mustaqil qaror qabul qilish, ishlab chiqarishdagi muammolarni tahlil qilish, jamoada ishlash, texnologik jarayonlarni optimallashtirish ko'nikmalarini egallaydi. Eksperimental guruhda o'qitilgan talabalar nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarni ko'rsatgan (30–35% o'sish kasbiy kompetensiya indikatorlarida kuzatilgan).

Zamonaviy ta'lim tizimi bo'lajak mutaxassislarning faqat nazariy bilimni emas, balki kasbiy kompetensiyasini, ijodkorlik salohiyatini va muammoli vaziyatlarda mustaqil

qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan konstruktivistik yondashuv — talabaning faol bilish subyekti sifatidagi rolini kuchaytirish, o'quv jarayonida hamkorlik, muloqot va tajribaga asoslangan o'rganishni ta'minlashning samarali metodidir.

Konstruktivizm g'oyasiga ko'ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki talaba uni shaxsiy tajriba, muammoli vaziyatlar va faol refleksiya orqali "quradi".

J.Piaget bilish jarayonini shaxsning kognitiv tuzilmalari rivojlanishi bilan bog'lab, o'rganishni faol intellektual jarayon deb qaraydi [1,302-b].

L.S.Vigotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasida bilimlar o'zaro muloqot va hamkorlik asosida egallanadi, deya ta'kidlaydi [2,103-b].

J.Dewey esa ta'limni tajriba asosida o'rganish sifatida ko'radi — "bilim faoliyat jarayonida yaratiladi" [3,76-b].

J.Bruner o'quvchini faol tadqiqotchi sifatida ko'rib, "kashfiyotchilik o'qitish" modelini ilgari suradi [4,127-b].

Quyidagi metodik yo'nalishlar taklif etiladi: muammoli o'qitish — tikuv buyumlari ishlab chiqarishdagi texnologik muammolarni mustaqil hal etish orqali bilimlarni faol o'zlashtirish, loyiha asosida ta'lim — talabalarga dizayn, material tanlash va ishlab chiqish jarayonlarini o'z ichiga olgan kichik loyihalar berish, reflektiv tahlil — har bir bosqichdan so'ng o'z faoliyatini baholash, xatolarni tahlil qilish, hamkorlikda o'rganish — kichik guruhlar orqali g'oyalar almashinuvi, ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish. Ushu sohada C.T.Fosnot [5,180-b], D.H.Jonassen [6,61-82-bb], R.A.Mavlonova [7,112-b]lar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tikuv buyumlari texnologiyasi fanini konstruktivistik yondashuv asosida o'qitish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi. Ushbu metodika o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni amaliy faoliyatda mustaqil va mas'uliyatli qaror qabul qilishga o'rgatadi. Natijada, kasbiy ta'lim jarayoni ijodiy, innovatsion va kompetensiyaga yo'naltirilgan tus oladi. Konstruktivistik yondashuv zamonaviy ta'lim paradigmasida shaxsning faol ishtirokiga, mustaqil fikrlash va tajriba asosida bilim egallashiga

tayanadi. Ushbu yondashuv bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida o'qituvchining "tayyor bilim manbai" emas, balki yo'naltiruvchi va fasilitator sifatidagi rolini kuchaytiradi. Tikuv buyumlari texnologiyasi fanini konstruktivistik asosda o'qitish natijasida: talabalarda amaliy muammolarni hal etish ko'nikmalari, ijodiy va tanqidiy tafakkur, kasbiy refleksiya va hamkorlikda ishlash malakalari shakllanadi; bilimni mustaqil izlab topish va uni amaliyotda qo'llash salohiyati rivojlanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Piaget Jean. The Psychology of Intelligence. - London: Routledge & Kegan Paul Ltd., 1950. - 368 p.
2. Vigotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 159 p.
3. Dewey John. Experience and Education. - New York: Macmillan Company, 1938. - 91 p.
4. Bruner Jerome S. Toward a Theory of Instruction. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1966. - 176 p.
5. Fosnot Catherine Twomey (Ed.). Constructivism: Theory, Perspectives, and Practice. - New York: Teachers College Press, 1996. - 180 p.
6. Jonassen David H. Designing Constructivist Learning Environments. - Educational Technology Research and Development, Vol.47, No.1, 1999.-pp.61-82.
7. Mavlonova R.A. Kasbiy ta'limda innovatsion yondashuvlar. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashriyoti, 2020. - 112 p.

